

## UMUMINSONIY AXLOQIY MEZONLAR VA ZAMONAVIY YOSHLARNING HAYOTIY QARASHLARI

**Mustafaev Abay Sartay uli**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
pedagogika mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213479>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umuminsoniy axloqiy mezonlarning mazmun-mohiyati, ularning yosh avlod dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasi shakllanishidagi o'rni, zamonaviy sharoitda mazkur qadriyatlarning ahamiyati hamda ularni singdirish jarayonining dolzarb masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy mezon, yoshlar, globallashuv, dunyoqarash, ma'naviyat, tarbiya.

## УНИВЕРСАЛЬНЫЕ НРАВСТВЕННЫЕ КРИТЕРИИ И ЖИЗНЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ

**Мустафаев Абай Сартай улы**

магистрант по специальности «Педагогика» Нукусского государственного  
педагогического института имени Ажинияза.

**Аннотация.** В данной статье раскрываются сущность универсальных нравственных критериев, их роль в формировании мировоззрения и жизненной позиции подрастающего поколения, значимость этих ценностей в современных условиях, а также актуальные вопросы процесса их усвоения.

**Ключевые слова:** универсальные ценности, нравственный критерий, молодёжь, глобализация, мировоззрение, духовность, воспитание.

## UNIVERSAL MORAL CRITERIA AND THE LIFE VIEWS OF MODERN YOUTH

**Mustafaev Abay Sartay uli**

Master's student in Pedagogy, Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute.

**Abstract.** This article explores the essence of universal moral criteria, their role in shaping the worldview and life position of the younger generation, the significance of these values in modern conditions, as well as the pressing issues of their integration into education and upbringing processes.

**Keywords:** universal values, moral criteria, youth, globalization, worldview, spirituality, education.

**Kirish.** Umuminsoniy axloqiy mezonlar insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida shakllanib kelgan umumiy qadriyatlar majmuasi bo'lib, ular jamiyat hayotining barqarorligi va shaxs ma'naviy kamoloti uchun asosiy omil hisoblanadi. Har qanday zamonda halollik, adolat, mehr-oqibat, insonparvarlik, burch va mas'uliyat kabi fazilatlar inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlarda yetakchi o'rin tutgan. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning hayotiy qarashlari va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ushbu qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Umuminsoniy axloqiy mezonlar yoshlar ongida jamiyatning umumqabul qilingan axloqiy normalariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishini ta'minlaydi. Ular yoshlarning shaxsiy

hayotini, jamiyatdagi o'rnini va kelajak maqsadlarini belgilashda muhim yo'naltiruvchi vazifa bajaradi. Shu bilan birga, zamonaviy davr yoshlarining dunyoqarashi global jarayonlar, axborot texnologiyalari taraqqiyoti va madaniyatlararo muloqot ta'sirida tezkor o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy an'analar bilan uyg'unlikda shakllantirilgan axloqiy qarashlar yoshlarning barqaror ma'naviy immunitetini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi yoshlar hayotiy qarashlarida turli xil manbalardan olingan g'oyalar va qadriyatlar birlashib, ularning ongida ma'lum bir qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlar ularga halollik, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va burchni ado etish kabi mezonlarni singdirsa, ikkinchi tomondan, global axborot makonidan kirib kelayotgan turli g'oyalar ayrim hollarda bu qadriyatlarga zid qarashlarni paydo qilishi mumkin. Shunday vaziyatda yoshlarni tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliylikka asoslangan tarbiya yoshlarni o'zligini anglashga undasa, umuminsoniy qadriyatlar esa ularning global dunyodagi o'rnini belgilashga yordam beradi.

Yosh avlodning hayotiy qarashlariga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularga ta'lim-tarbiya tizimi, oila muhiti, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Ta'lim tizimi yoshlarga nazariy bilim bilan bir qatorda, axloqiy dunyoqarashni shakllantirishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Oila esa yoshlarning eng dastlabki axloqiy maktabi bo'lib, unda mehr-oqibat, hurmat, hamjihatlik kabi qadriyatlar singdiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqaladigan turli xil g'oyalar va axborotlar yoshlarning axloqiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularni mustahkam ma'naviy immunitet bilan ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy yoshlarning hayotiy qarashlarida individualizm va pragmatizm unsurlari ham ko'zga tashlanmoqda. Bu, bir tomondan, yoshlarning o'z imkoniyatlariga ishonchini oshirsa, ikkinchi tomondan, jamiyat oldidagi mas'uliyatni kamaytirish xavfini tug'diradi. Shu sababli, umuminsoniy axloqiy mezonlarni yoshlar ongiga singdirish, ularni shaxsiy manfaatdan ko'ra jamoaviy manfaatni ustun qo'yishga undash tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Insonparvarlik, adolat, tinchliksevarlik, birdamlik kabi qadriyatlar yoshlarning hayotiy qarashlarini to'g'ri yo'naltiradi va ularni ma'naviy barkamol shaxslar sifatida kamol toptiradi.

Shu boisdan, zamonaviy yoshlarni tarbiyalashda umuminsoniy axloqiy mezonlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, ijtimoiy muhitda ijobiy axloqiy namunalarning ustuvorligini ta'minlash, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va ular ongida ma'naviy immunitetni shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

**Xulosa.** Umuminsoniy axloqiy mezonlar yoshlarning hayotiy qarashlarini belgilovchi asosiy tamoyillar bo'lib, ularni singdirish jarayoni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda olib borilganda samarali natija beradi. Zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi globallashtirish, axborot texnologiyalari va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida shakllanayotgan bo'lsa-da, ular milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalansa, jamiyatda barkamol, ma'naviy yetuk va mas'uliyatli shaxslar safi kengayadi.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. –T.: Chashma print, 2008.
2. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: "Ma'naviyat", 2003.
3. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003.
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G.,G., O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
5. A.Allayarov, G.,Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020.